O‘ZBEKISTONDA DEMOGRAFIK SHAROITLAR VA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Niyazova Gulnoza Shovkat qizi
O’zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi tinglovchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.20696087

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O’zbekistonda demografik sharoitlar va inson kapitalini rivojlantirish o’rtasidagi bog’liqlik, aholining tez o’sishi, yoshlarning ko’payishi va mehnat bozoridagi nomutanosiblikdan kelib chiqadigan muammolar o’rganib chiqiladi. Tadqiqotda O’zbekistonning demokrafik tendensiyalari potensial demokrafik dividendlarni taqdim etsa-da, inson kapitalidan, ayniqsa ta’lim, kasbiy ko’nikmalar va bandlikda samarali foydalanilmasligi barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun muhim to’siq bo’lib xizmat qilishi ta’kidlangan. Rasmiy statistika va ikkilamchi manbalarga asoslanib, maqola tug’ilish tendensiyalari, migratsiya va urbanizatsiyaning inson resurslarini rivojlantirishga ta’sirini o’rganadi.*

Kalit so‘zlar: *demografik sharoit, inson kapitali, demografik dividend, mehnatga layoqatli aholi, yoshlar bandligi, ishsizlik, ta’lim tizimi, kasbiy ko‘nikmalar, urbanizatsiya, migratsiya.*

Abstract. *This article examines the relationship between demographic conditions and human capital development in Uzbekistan, focusing on issues arising from rapid population growth, an increasing number of young people, and imbalances in the labor market. The study highlights that, although Uzbekistan’s demographic trends present potential demographic dividends, ineffective use of human capital—particularly in education, professional skills, and employment—remains a significant obstacle to sustainable economic development. Based on official statistics and secondary sources, the article explores how birth trends, migration, and urbanization affect the development of human resources.*

Keywords: *demographic conditions, human capital, demographic dividend, working-age population, youth employment, unemployment, education system, professional skills, urbanization, migration.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается связь между демографическими условиями и развитием человеческого капитала в Узбекистане с акцентом на проблемы, возникающие в связи с быстрым ростом населения, увеличением числа молодежи и дисбалансом на рынке труда. Исследование подчеркивает, что, хотя демографические тенденции Узбекистана предоставляют потенциал для демографического дивиденда, неэффективное использование человеческого капитала — особенно в сферах образования, профессиональных навыков и занятости — остаётся значительным препятствием для устойчивого экономического развития. На основе официальной статистики и вторичных источников статья изучает влияние тенденций рождаемости, миграции и урбанизации на развитие человеческих ресурсов.*

Ключевые слова: *демографические условия, человеческий капитал, демографический дивиденд, трудоспособное население, занятость молодежи, безработица, система образования, профессиональные навыки, урбанизация, миграция.*

KIRISH

Raqamli texnologiyalar inson faoliyatining barcha jabhalariga chuqur kirib borayotgan hozirgi davrda inson kapitalining mazmuni ham yangicha talqin qilinmoqda. Endilikda inson kapitali nafaqat ta'lim va sog'liq ko'rsatkichlari bilan balki raqamli savodxonlik, moslashuvchan fikrlash va innovatsion ko'nikmalar bilan ham belgilanadi. Shu sababli, zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardosh bo'lish uchun har bir mamlakat inson kapitalining zamonga mos va funksional rivojlanishini ta'minlashi zarur.

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. "Yangi O'zbekiston – 2030", "Raqamli O'zbekiston – 2030", "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda boshqa strategik hujjatlar doirasida aholini zamonaviy ko'nikmalar bilan ta'minlash, raqamli ta'lim platformalarini kengaytirish va kasb-hunar o'quv yurtlarini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar mamlakatni raqamli transformatsiya orqali yuqori malakali, moslashuvchan ishchi kuchiga ega davlatga aylantirishga xizmat qilmoqda. Hozirgi davrda demografik jarayonlar mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Aholi sonining o'sishi, yoshlar ulushining yuqoriligi, migratsiya jarayonlari va urbanizatsiya darajasi inson kapitalining shakllanishiga va undan foydalanish samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.(Umarkulov and Abdunosirov, 2025)

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mintaqaviy rivojlanish jarayonlarini samarali tashkil etish masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi davrda mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshirish, unda mavjud tabiiy, mehnat va intellektual resurslardan oqilona foydalanish bilan bir qatorda, inson kapitali va ijtimoiy salohiyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki iqtisodiy o'sishning zamonaviy omillari orasida aynan inson kapitali asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida maydonga chiqmoqda.(Zoirov, 2025)

O'zbekiston aholisi soni so'nggi yillarda barqaror ravishda o'sib bormoqda. Aholining katta qismini yoshlar tashkil etishi mamlakat uchun katta imkoniyat yaratadi. Chunki yosh va mehnatga layoqatli aholi sonining ko'pligi iqtisodiy rivojlanish uchun muhim resurs hisoblanadi. Biroq ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun ta'lim tizimi, kasbiy tayyorgarlik va mehnat bozorining o'zaro uyg'un rivojlanishi zarur. Shu sababli demografik o'sish jarayonida inson kapitalini rivojlantirish va undan samarali foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda demografik sharoitlar va inson kapitalini rivojlantirish o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish hamda mavjud muammolarni aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Biz rivojlangan jamiyatlarningv boshlanishi bugungi o'zbek jamiyatidagi o'zgarishlarga o'xshash bo'lganini ko'ramiz. Masalan, Adam Smit ishchilarning bilim qiymati haqida yozadi, ularning mahorati va qanday kompaniyaning samaradorligiga ta'sirini e'tirof etadi. Bundan tashqari Adam Smit shunday degan: "Ta'lim -bu malakali va o'qitilgan ishchilarni qo'llab-quvvatlaydigan odamlarga invistitsiya qilish shakli. Xodimlarga vakolat berish, shuningdek, ularga qaror qabul qilish imkoniyatini berish, ularning motivatsiyasini oshiradi va tashkiliy o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatishni kamaytiradi " - deydi. (Alimardonova, 2025) Inson kapitalidan foydalanish uning bevosiya samaradorligini va undan foydalanishdan oloinadigan daromadni ta'minlash ham jamiyat uchun dolzarb bo'ladi. Chunki kapitalni shakllantirish manbalaridan qat'iy nazar, insonning o'zi jamiyat yoki davlat uchun o'z manfaatlariga ega.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik va innovatsion infratuzilmaga yo‘naltirilgan investitsiyalar nafaqat iqtisodiy rivojlanishni tezlashtiradi, balki hududlarda ijtimoiy barqarorlikni ham oshiradi. Shu jihatdan inson kapitali va ijtimoiy salohiyatning uyg‘un rivojlanishi hududiy siyosat samaradorligining asosiy mezoni sifatida namoyon bo‘ladi. Inson kapitali va demografik jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘plab iqtisodchilar tomonidan o‘rganilgan. Inson kapitali nazariyasi bo‘yicha muhim ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlardan biri Gary Becker hisoblanadi. U inson kapitalini ta’lim, sog‘liq va kasbiy malaka orqali shakllanadigan muhim iqtisodiy resurs sifatida izohlaydi.(Becker, 1993)

Zamonaviy tadqiqotlarda demografik dividend tushunchasi ham keng qo‘llaniladi. Demografik dividend mehnatga layoqatli aholi ulushining ortishi natijasida iqtisodiy o‘sish uchun yuzaga keladigan imkoniyatni anglatadi. Ammo bu imkoniyatdan foydalanish uchun inson kapitalini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda demografik jarayonlar va inson kapitalini rivojlantirish o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish uchun bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan: statistik tahlil usuli, taqqoslash usuli, tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil usullari.

Tadqiqot jarayonida rasmiy statistika ma’lumotlari hamda ilmiy adabiyotlar asosida O‘zbekistondagi demografik tendensiyalar, tug‘ilish darajasi, migratsiya va urbanizatsiya jarayonlari o‘rganildi.

Mazkur metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi tadqiqotning nazariy va amaliy jihatlarini o‘zaro bog‘lashga, inson kapitaliga investitsiya samaradorligini nafaqat miqdoriy ko‘rsatkichlar, balki sifat jihatidan ham baholashga imkon yaratdi. Natijada, tadqiqot xulosalari ilmiy asoslangan, tizimli va amaliy jihatdan qo‘llash mumkin bo‘lgan darajada shakllantirildi.

Inson kapitaliga yo‘naltirilayotgan investitsiyalarning amaldagi holatini baholashda **statistik** tahlil usullari qo‘llanildi. Jumladan, dinamik qatorlar tahlili, o‘rtacha va nisbiy ko‘rsatkichlar, indekslar usuli orqali ta’lim, sog‘liqni saqlash va kasbiy tayyorlash sohalariga ajratilayotgan investitsiyalar hajmining vaqt bo‘yicha o‘zgarish tendensiyalari tahlil qilindi. Bu usullar investitsiya jarayonlarining real holatini aniqlashga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar

Inson kapitali – bu mintaqaning iqtisodiy rivojlanishini ta’minlovchi eng muhim strategik resurslardan biridir. Hozirgi davrda ishlab chiqarish jarayonining asosiy omili sifatida nafaqat moddiy resurslar, balki insonning bilim darajasi, kasbiy malakasi va ijodiy salohiyati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Inson kapitaliga yo‘naltirilgan sarmoyalar uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish uchun barqaror asos yaratadi.(Zoirov, 2025)

Mintaqalarda iqtisodiy siyosatni takomillashtirish inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishiga bevosita bog‘liq. Jumladan, mehnat bozorini modernizatsiya qilish, bandlikni rag‘batlantirish, zamonaviy kasb-hunar o‘quv markazlarini tashkil etish, oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish orqali inson kapitali sifati yuksaladi. Bu esa o‘z navbatida hududiy iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi. O‘zbekistonda demografik jarayonlarning muhim xususiyatlaridan biri aholi sonining tez sur’atlarda o‘sib borishidir. So‘nggi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakat aholisi soni 2025 yil holatiga 37,8–37,9 million kishiga yetgan. Aholi tarkibida mehnatga layoqatli yoshdagi fuqarolar ulushi yuqori bo‘lib, ularning soni **21,2** million yoki umumiy aholining 56 foizini

tashkil etadi. Shu bilan birga, 12,2 million kishi (32,2%) mehnat yoshidan kichik aholiga to‘g‘ri keladi. (Bucci and Prettner, 2019)

Mazkur demografik tarkib iqtisodiyot uchun muhim imkoniyat – ya’ni demografik dividendni shakllantiradi. Mehnatga layoqatli aholining yuqori ulushi ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi iqtisodiy faoliyat turlarini rivojlantirish hamda iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish imkonini beradi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, bunday demografik tuzilma iqtisodiy rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, aholining tez o‘sishi mehnat bozoriga ham sezilarli bosim o‘tkazmoqda. Har yili taxminan 500 mingga yaqin yoshlar mehnat bozoriga kirib keladi, bu esa yangi ish o‘rinlari yaratish zaruratini kuchaytiradi.

Mehnat bozoridagi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2025 yil uchinchi choragi holatiga O‘zbekistonda ishsizlik darajasi 4,9 foizni tashkil etgan. Mamlakatda 14,81 million kishi band, iqtisodiy faol aholi esa 15,57 million nafarni tashkil etadi. Ishsizlar soni taxminan 760 ming kishi atrofida baholanadi. (Kim, 2024) Shunga qaramay, yoshlar bandligi bilan bog‘liq muammolar hanuz dolzarb hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, yoshlar o‘rtasidagi ishsizlik darajasi 10–11 foiz atrofida bo‘lib, bu umumiy ishsizlik darajasiga nisbatan yuqoriroq ko‘rsatkichdir. Bundan tashqari, migratsiya jarayonlari ham inson kapitalidan foydalanishga ta’sir ko‘rsatmoqda. Hozirgi vaqtda 1,8 milliondan ortiq O‘zbekiston fuqarolari xorijda mehnat faoliyatini olib bormoqda, bu esa ayrim sohalarda malakali kadrlar yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin. (Hanushek and Woessmann, 2012)

Shuningdek, urbanizatsiya jarayonlari ham inson kapitalining shakllanishi va taqsimlanishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shaharlarda iqtisodiy imkoniyatlarning ko‘pligi sababli aholi migratsiyasi kuchayib, bu hududlarda mehnat bozorining kengayishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, qishloq hududlarida iqtisodiy imkoniyatlarning nisbatan cheklanganligi hududlar o‘rtasida iqtisodiy tafovutlarning saqlanib qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekistonning demografik tarkibi iqtisodiy rivojlanish uchun katta imkoniyat yaratmoqda. Biroq ushbu imkoniyatlardan to‘liq foydalanish uchun ta’lim tizimi sifatini oshirish, yoshlarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

O‘zbekistonda aholi sonining o‘sish dinamikasi

Yil	Aholi soni (mln kishi)
2015	31,6
2018	33,3
2020	34,6
2022	36,0
2024	37,4
2025	37,8

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi*

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda aholi soni so‘nggi yillarda barqaror ravishda o‘sib bormoqda. 2015 yilda 31,6 million bo‘lgan aholi soni 2025 yilga kelib qariyb 37,8 million kishiga yetgan. Bu esa mamlakatda demografik jarayonlarning faol kechayotganini ko‘rsatadi.

2-jadval

Aholining yosh tarkibi (2024–2025)

Aholi guruhi	Ulushi (%)
Mehnat yoshigacha	32%
Mehnat yoshidagi aholi	56%
Mehnat yoshidan katta	12%

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi*

Aholining yosh tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda mehnatga layoqatli aholi ulushi yuqori hisoblanadi. Bu esa mamlakat uchun demografik dividend olish imkoniyatini yaratadi. Biroq ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun inson kapitalini rivojlantirish muhim hisoblanadi.



1-rasm. O’zbekistondagi tug’ilish va urbanizatsiya darajasining dinamikasi.

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Ushbu grafiklarda O‘zbekistonda tug‘ilish darajasining so‘nggi yillardagi dinamikasi hamda O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonining asta-sekin o‘sib borayotganini tasvirlangan. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, 2021 yilga qadar tug‘ilish darajasida ma’lum darajada o‘sish kuzatilgan bo‘lsa, keyingi yillarda esa biroz pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu demografik jarayonlar mamlakatning mehnat resurslari shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda shahar aholisi ulushi ortib bormoqda. Bu jarayon iqtisodiy faollikning shaharlarda ko‘proq jamlanishi hamda mehnat bozori tarkibining o‘zgarishi bilan bog‘liq.

O‘zbekiston aholisi tarkibida mehnatga layoqatli yoshdagi fuqarolar ulushi yuqori bo‘lib, 2025 yil holatiga **21,2 million kishini** tashkil etadi, bu esa umumiy aholining **56 foiziga** teng. Bu demografik tuzilma mamlakat uchun katta imkoniyat – ya’ni **demografik dividend** yaratadi. Mutaxassislar fikricha, agar mehnatga layoqatli aholi malakali va samarali ishlatilsa, bu iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish va mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi. So‘nggi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, har yili taxminan **500 ming yoshlar mehnat bozoriga kirib keladi,** bu esa yangi ish o‘rinlari yaratish va bandlikni ta’minlash bo‘yicha siyosatni yanada rivojlantirish zaruratini kuchaytiradi. Shu bilan birga, hududlar bo‘yicha ish bilan bandlik farqi ham mavjud bo‘lib, shahar

hududlarida mehnat resurslaridan samarali foydalanish darajasi yuqori, qishloq hududlarida esa ish o‘rinlari cheklangan.(Barro, 2013)

Demografik dividenddan samarali foydalanish uchun ta’lim tizimini mehnat bozoriga moslashtirish, yoshlarning kasbiy va raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash muhimdir. Mutaxassislar hisoblashicha, agar bu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, O‘zbekistonda mehnat unumdorligi 15–20 foizga oshishi mumkin.

O‘zbekistonning mehnat bozori statistikasi shuni ko‘rsatadiki, 2025 yil holatiga umumiy ishsizlik darajasi **4,9 foiz**ni tashkil etadi. Biroq yoshlar o‘rtasidagi ishsizlik darajasi ancha yuqori bo‘lib, **10–11 foiz**ni tashkil etadi. Bu yoshlar bandligi bilan bog‘liq muammolar mavjudligini va mehnat bozori talablariga yoshlarning malakasi to‘liq mos kelmasligini ko‘rsatadi. Shuningdek, migratsiya jarayonlari ishsizlik va kadrlar yetishmovchiligi muammolarini kuchaytiradi. Hozirgi vaqtda **1,8 milliondan ortiq O‘zbekiston fuqarolari xorijda mehnat faoliyatini olib bormoqda,** bu esa ayrim sohalarda malakali kadrlar yetishmasligiga olib keladi.(Davletova, 2025)

XULOSA

O‘zbekistonning demografik tuzilmasi va inson kapitali salohiyati mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun katta imkoniyat yaratmoqda. Mehnatga layoqatli yoshlar ulushining yuqoriligi, aholining tez o‘sishi va yoshlarning ko‘pligi demografik dividendni shakllantiradi. 2025 yil holatiga mehnatga layoqatli aholining 56 foizi iqtisodiyot uchun asosiy resurs bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, har yili taxminan 500 ming yoshlar mehnat bozoriga kirib keladi, bu esa ish o‘rinlari yaratish va bandlikni ta’minlash masalasini dolzarb qiladi. Biroq ushbu imkoniyatlardan to‘liq foydalanish uchun inson kapitalini rivojlantirish zarur. Hozirgi vaqtda yoshlar o‘rtasidagi ishsizlik darajasi 10–11 foizni tashkil etib, umumiy ishsizlik darajasidan yuqoridir. Shuningdek, migratsiya va urbanizatsiya jarayonlari mehnat bozoridagi kadrlar taqsimotiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ta’lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish, yoshlarning kasbiy va raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish muhim hisoblanadi. Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, demografik dividend samarali ishlatiladi, yoshlar bandligi oshadi va inson kapitalidan to‘liq foydalanish natijasida mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, demografik jarayonlar va inson kapitalini uyg‘un rivojlantirish O‘zbekiston uchun barqaror va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishning muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Alimardonova, G.A. kizi (2025) ‘O’zbekistonda inson resurslari samaradorligini oshirish istiqbollari’. Available at: https://doi.org/10.5281/ZENODO.15494768.
2. Barro, R.J. (2013) ‘Inson kapitali va davlat siyosati’. Available at: https://doi.org/10.1016/B978-0-12-375678-7.00005-1.
3. Becker, G.S. (1993) *Inson kapitali:Ta’limga alohida e’tibor qaratgan holda nazariy va empirik tahlil*. University of Chicago Press. Available at: https://doi.org/10.7208/chicago/9780226041223.001.0001.
4. Bucci, A. and Prettner, K. (eds) (2019) *Inson kapitali va iqtisodiy o’sish: sog’liqni saqlash, ta’lim va demografik ko’rsatgichlarning ta’siri*. Cham: Springer International Publishing. Available at: https://doi.org/10.1007/978-3-030-21599-6.
5. Davletova, D. (2025) ‘Qashshoqlikni kamaytirish uchun davlat mablag’lari orqali inson kapitalini rivojlantirish’. Available at: https://doi.org/10.5281/ZENODO.14850172.

6. Hanushek, E.A. and Woessmann, L. (2012) ‘Inson kapitaliga investitsiya va iqtisodiy o‘sish’, *Journal of Economic Growth*, 17(4), pp. 267–321. Available at: https://doi.org/10.1007/s10887-012-9081-x.
7. Umarkulov, K. and Abdunosirov, N. (2025) ‘O’zbekistonda inson kapitali raqamli transformatsiya sharoitida: muammolar, imkoniyatlar va strategik yechimlar’. Available at: https://doi.org/10.5281/ZENODO.15798641.
8. Zoirov, G. (2025) ‘Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni takomillashtirishda inson kapitali va ijtimoiy salohiyatning o‘rni’. Available at: https://doi.org/10.5281/Zenodo.17632568.
9. Kim, Y. (2024) ‘Inson kapitaliga investitsiyalar – O‘zbekiston iqtisodiy o‘sish dvigateli’, *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(10), pp. 351–362. Available at: https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss10-pp351-362.